

"ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DAKTIL NUTQINING AHAMIYATI"

Azimova Zulfiya Murodjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

*Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika
fakulteti logopediya yo'nalishi magistratura*

bosqichi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirishda daktil nutqining pedagogik ahamiyatini o'rganadi. Daktil nutqi — barmoqlar yordamida harflar va so'zlarni ifodalash usuli bo'lib, bolalarning talaffuz, fonemalarni tanish, so'z boyligi va lingvistik qobiliyatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada daktil nutqining amaliy qo'llanilishi, bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishdagi ijobiy natijalari va pedagogik mashg'ulotlarda integratsiyasi yoritilgan. Tadqiqot natijalari daktil nutqi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini mustahkamlash va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: eshitish nogironligi, og'zaki nutq, daktil nutqi, talaffuz, fonetik rivojlanish, lingvistik qobiliyat

Аннотация: В статье анализируется педагогическое значение дактильной речи в развитии устной речи у детей с нарушениями слуха. Дактильная речь — это способ передачи букв и слов с помощью пальцев, который способствует формированию произношения, фонематического восприятия, словарного запаса и лингвистических навыков. Рассматриваются практическое применение дактильной речи, её интеграция в педагогические занятия и положительное влияние на развитие устной речи детей. Результаты исследования показывают, что дактильная речь является эффективным инструментом для укрепления речи и развития коммуникативных навыков у детей с нарушениями слуха.

Ключевые слова: нарушение слуха, устная речь, дактильная речь, произношение, фонетическое развитие, лингвистические навыки

Annotation: This article examines the pedagogical significance of dactyl speech in developing oral speech in children with hearing impairments. Dactyl speech, a method of expressing letters and words using fingers, helps improve pronunciation, phonemic awareness, vocabulary, and linguistic skills. The article discusses the practical application of dactyl speech, its integration into pedagogical activities, and its positive impact on oral speech development. Findings indicate that dactyl speech is an effective tool for strengthening oral speech and enhancing communicative abilities in children with hearing impairments.

Keywords: hearing impairment, oral speech, dactyl speech, pronunciation, phonetic development, linguistic skills

KIRISH.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar jamiyatda turli qiyinchiliklarga duch keladigan guruh hisoblanadi. Ularning nutq va til rivojlanishi, shu jumladan og'zaki nutqni shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, nafaqat pedagogik, balki logopedik yondashuvni ham talab qiladi. Eshitish qobiliyatining yetishmasligi bolaning til o'rganishi, so'z boyligi, talaffuz va artikulyatsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, og'zaki nutqni rivojlantirishda maxsus metod va usullarni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar huquqlari va ularning inklyuziv ta'lim olish imkoniyatlarini himoya qiluvchi bir qator qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun (2020-yil) nogiron bolalarning ta'lim, ijtimoiy himoya, reabilitatsiya va jamiyatdagi teng imkoniyatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi yangilanishlar — inklyuziv ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar va qarorlar (2020–2021 yillar) eshitish nogironligi bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablarida, shuningdek uy ta'limi shaklida o'qish imkoniyatlarini belgilaydi. Bu esa bolalarning rivojlanishida samarali muhit yaratishga xizmat qiladi va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Og'zaki nutqni shakllantirishda turli metodlar qo'llaniladi: vizual stimullar, artikulyatsiya mashqlari, gestikulyatsiyalar va harakatlar orqali nutqni mustahkamlash. Shu jumladan, daktil nutqi — barmoqlar orqali belgilar yordamida so'zlarni ifodalash usuli — eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuz va og'zaki nutqni rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Daktil nutqi nafaqat bolalarning vizual va motor qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki fonemalarni tanish, ularni og'zaki ifodalash va so'zlarni segmentlarga ajratib talaffuz qilish imkonini beradi. Shu bois, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yaratilgan qonuniy va normativ-huquqiy asos, inklyuziv ta'lim imkoniyatlari hamda daktil nutqi kabi innovatsion metodlar birlashib, bolalarning og'zaki nutqini samarali rivojlantirishning ilmiy-pedagogik zaminini yaratadi.

ASOSIY QISM.

Daktil nutqi — kar bolalarni o'qitishda juda muhim bo'lgan kuchli vosita bo'lib, u bolalarning lug'at boyligini kengaytiradi, nutqni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi va umumiy rivojlanish darajasini sezilarli oshiradi. Ko'plab ota-onalar yoki yaqinlar kar bola bilan muloqotda uni to'g'ri tushunishga emas, balki faqatgina ishora, mimika yoki shaxsiy taxminlarga tayanib fikr yuritadilar. Bu esa bolaning to'laonli fikr bildirishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun kar bolalar bilan ishlaydigan shaxslar daktil nutqning mazmunini, rolini va ahamiyatini to'liq tushunib

olishlari zarur. Ba'zan daktil nutqni mimika yoki imo-ishora nutqi bilan aralashtirishadi, biroq mutaxassislar ta'kidlashicha, daktil nutq — bu bolalarda savod chiqmagan bo'lsa ham og'zaki nutqni qo'llab-quvvatlovchi hamda uning rivojlanishini jadallashtiruvchi alohida tizimdir.

Daktillash – so'zlarning ma'nosini anglash, tilning grammatik qurilishini egallash jarayonini osonlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Daktilda har bir belgi nafaqat ko'rish orqali idrok qilinadi, balki tovushga bog'liq holda qayta yaratilishi ham ancha qulaydir. Ikki yarim yoshli bolalar ham qisqa muddatda daktilda berilgan harflarni o'zlashtira oladi. Yosh bolalar odatda 15–30 kun ichida daktildagi harf belgilarini tezda yodlab oladi. Buning ahamiyati shundaki, so'z yordamida murojaat qilish qiyin bo'lgan vaziyatlarda bola ishora orqali istalgan predmetni yoki fikrni bildiradi. Biroq bunda so'zni faqat talaffuz qilish emas, balki har bir harfning artikulyatsiyasini aniq idrok etish talab etiladi. Eshituvchi bola og'zaki nutqni muloqot jarayonida tabiiy ravishda egallaydi, kar bolalarda esa bu jarayon boshqa yo'sinda kechadi. Kar bolalar nutqni ko'proq ko'rish orqali o'zlashtiradi: vaqt o'tishi bilan barmoqlar yordamida tovushlarni talaffuzga tayyorlashni, so'z va iboralarni og'zaki shaklda qayta tiklashni o'rganadi. Mashhur surdopedagog F.A. Rauning ta'kidicha, telefon orqali suhbatlashishda nutqni faqat tovushiga qarab farqlash juda mushkul. Chunki biz eshitmayotgan bo'lsak, tanish so'zlarni faqat kontekst orqali taxmin qilamiz. Ammo eshitish imkoniyati bor odam ma'lum tovushlarni tezda taniydi: familiyani talaffuz etish, alohida tovushlarni farqlash, murakkab birikmalarning birinchi bo'g'inini aniqlash osonroq kechadi. So'z bilan daktildagi ishora orasidagi bog'liqlikni o'rganish, harflarning tarkibini anglash, tovushlarni farqlay olish kabi ko'nikmalar bolalar uchun juda muhimdir. Masalan, a, o, u, i unlilari bolalar tomonidan oson ajratiladi. Biroq p–b kabi undoshlar bir-biriga juda yaqin bo'lgani sababli ularni idrok etish ko'proq vaqt talab qiladi. Shuningdek, j, ch, sh kabi juftliklarni ham farqlash murakkab bo'lishi mumkin. Ayrim undoshlar, xususan k, g, x tovushlari og'iz bo'shlig'ida chuqurroq hosil bo'lgani uchun ularni ishora orqali idrok etish unchalik oson emas. Shu bois daktildan foydalanish so'zning talaffuzini aniqlashtirishda muhim vosita bo'lib, nutqni to'g'ri shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan daktillash jarayoni ota-onalarda norozilik uyg'otishi mumkin, ammo ilmiy manbalar bu xavotirning asossiz ekanini ko'rsatadi. Chunki kar bola og'zaki nutqni aynan ko'rish vositasida yaxshiroq idrok qiladi va daktildan foydalanish uning e'tiborini predmetga qaratish, muloqotga faol kirishishiga ko'maklashadi. Daktildan foydalanuvchi bolalar tovushlarni aniq eslab qoladi, bu esa ularning talaffuzini mustahkamlashga yordam beradi. Daktildagi belgilar nutqni shakllantirishdagi murakkab jarayonlarni yengillashtiradi va bolaning og'zaki nutqni egallash imkoniyatini kengaytiradi.

Daktilologiya — kar va zaif eshituvchi bolalarda harf, tovush, soʻz va shartli belgilarni qoʻl ishoralari orqali ifodalashga asoslangan maxsus oʻqitish tizimi hisoblanadi. Daktil nutqning asosiy koʻrinishlariga quyidagilar kiradi:

1. qoʻl harakatlari orqali harflarni chizuvchi ishoralar (masalan, a, b, d);
2. harf shaklini ifodalovchi daktil belgilar (o, l, m, t);
3. shartli belgilar (v, j, n) va boshqalar.

Daktil nutq soʻzlashuv nutqining barcha bosqichlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarda boshlangʻich savod oʻrgatish davrida daktilologiyadan faol foydalanish tavsiya etiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, daktil nutq eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda ogʻzaki nutqning shakllanishi uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Y.E.N. Marsinovskaya olib borgan ilmiy tadqiqotlar eshituvchi bolalarda daktil nutqdan foydalanish ularning ogʻzaki nutqini oʻzlashtirishga yordam berishini koʻrsatadi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda esa daktil nutqning oʻzlashtirilish surʼati ancha barqaror boʻlib, koʻpincha ogʻzaki nutqdan oldin shakllanadi. Bunda bola avval harakat, koʻrish, kinestetik sezgi va taktil signallar orqali nutq mazmunini anglaydi, soʻng ogʻzaki ifodaga oʻtadi. Daktilologiya va yozma nutq orasidagi oʻzaro bogʻliqlik ham nihoyatda murakkab. Masalan, S.A. Zikovning kuzatuvlariga koʻra, eshituvchi bolalarda savod chiqarishda avval akustik va harakat tasvirlariga tayanish odat tusiga kiradi. Soʻzni yozishdan oldin bola uning talaffuzini eshitadi yoki vizual tasvirini koʻradi. Kar bolalarda esa bu jarayon boshqacha kechadi: ular eshitish apparatlari yordamida ovozni qisman sezishi mumkin boʻlsa-da, baribir yozuv jarayonida koʻproq daktilologiyaga suyanadi. Daktil nutqni oʻzlashtirish va yozuv jarayoni bir vaqtning oʻzida amalga oshishi mumkin: bola soʻzni talaffuz qiladi, yozadi va daktil bilan ifodalaydi. Agar oʻquv jarayoni toʻgʻri tashkil qilinsa, bola daktil harakatlaridan ogʻzaki nutqni mustahkamlash vositasi sifatida ham foydalanadi. Shuningdek, artikulyatsiya apparati, qoʻl kinesteziyasi va koʻrish idrokining uygʻunligi nutqning tez va toʻgʻri rivojlanishiga xizmat qiladi. Nutq shakllanishida ikki xil yoʻl mavjud:

1. Ogʻzaki nutqni mustaqil shakllantirish yoʻli — bunda bola soʻzlarni talaffuz qilib, keyin yozadi, daktil ishoralardan esa qoʻshimcha tayanch sifatida foydalanadi.
2. Daktil nutq asosida nutqni oʻrgatish yoʻli — bunda bola avval ishoralar orqali tushunadi, keyinchalik talaffuz va yozuvga oʻtadi.

Talaffuzni shakllantirish jarayoni ikki yoʻsinda kechadi:

informal usul — nutq organlarining harakati tabiiy ravishda oʻrgatiladi, oʻyinlar, muloqot, koʻrgazmali materiallar orqali nutq faoliyati faollashtiriladi;
formal usul — talaffuzga oid maxsus mashqlar, artikulyatsiya mashqlari, rezonans, nafas boshqaruvi va musiqiy-ritmik mashqlar qoʻllanadi.

Eshitish pasaygan sari bolaning nutq rivoji sekinlashadi, fonetik, leksik va grammatik tuzilishlarda buzilishlar kuchayadi. Agar eshitish ikki yoshga qadar

yo‘qolsa, nutqning shakllanishi juda qiyin bo‘ladi. 3–5 yosh oralig‘ida eshitish pasayganda esa nutqning to‘liq shakllanishi katta xavf ostida qoladi. 6–7 yoshdan keyin eshitish pasaysa, bola mavjud nutq ko‘nikmalarini yo‘qotishi mumkin. Kar bolalar nutqi eshituvchi bolanikidan tubdan farq qiladi. Kar bolalarda nutqning fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o‘ziga xos bo‘ladi; ular tovushni eshitmagani uchun talaffuzni nazorat qila olmaydi. Maktabgacha yoshda agar maxsus ta‘lim bo‘lmasa, nutq deyarli shakllanmaydi. Bola ovoz reaksiyalarini kam namoyon qiladi, tovush birikmalari sust bo‘ladi, ovoz chiqarish soni tobora kamayib boradi.

XULOSA.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqning shakllanishi o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, bu jarayon ko‘plab fiziologik, psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday bolalarda nutqiy rivojlanishning sekinlashishi, tovushlarni farqlashdagi qiyinchiliklar, so‘z ma‘nosini idrok etishdagi cheklanishlar va grammatik tuzilmalarning shakllanmasligi ularning og‘zaki va yozma nutqini egallash sur‘atiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli maxsus metodikalar, jumladan, daktil nutq, mimika, ko‘rish idroki, proprioseptiv sezgi va taktil vositalardan foydalanish nutqni rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. O‘quvchilarda nutqning to‘laqonli shakllanishi uchun pedagogning to‘g‘ri, ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Daktil nutq eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun nafaqat aloqa vositasi, balki lug‘at boyligini kengaytiruvchi, tovush-harf aloqalarini mustahkamlovchi, yozma nutqni shakllantirishni yengillashtiruvchi, ayni paytda og‘zaki nutqni rivojlantiruvchi poydevor vazifasini bajaradi. Daktilologiya yordamida bola so‘zning shaklini, harf tuzilishini, ma‘no va tovush o‘rtasidagi bog‘lanishni sezgirroq idrok qiladi, natijada so‘zlarni talaffuz qilish, tushunish va yozish jarayoni bosqichma-bosqich mustahkamlanadi.

Shuningdek, nutq rivoji bolaning qoldiq eshitish darajasi, eshitish nuqsonining qaysi yoshda paydo bo‘lgani, uning psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, oilaviy qo‘llab-quvvatlash sifati va korreksion ta‘limning o‘z vaqtida boshlanishiga bevosita bog‘liqdir. Eshitish nuqsoni erta yoshda yuzaga kelgan bolalarda nutqning shakllanishi keskin qiyinlashadi, eshitish kechroq buzilgan bolalarda esa mavjud nutq ko‘nikmalarining asta-sekin yo‘qolish xavfi yuqori bo‘ladi. Bu esa maxsus pedagogik yondashuvning vaqtida qo‘llanishi, diagnostika, rehabilitatsiya va korreksion yordamning muntazam olib borilishini talab etadi. Daktil nutqni o‘qitishning ilmiy asoslangan metodikalari og‘zaki nutqni shakllantirish bilan birgalikda olib borilganda, bolaning idrok faoliyati faollashadi, muloqot kompetensiyasi rivojlanadi, ko‘rish va harakat analizatorlari o‘rtasidagi integratsiya kuchayadi. Ayniqsa, daktil ishoralar orqali harflar va tovushlarni anglash o‘quvchini savod o‘rgatish jarayoniga puxta tayyorlaydi, matnni o‘qish va yozishda xatolar miqdorini kamaytiradi. Shu bilan birga,

nutqning rivojlanishi bolaning intellektual faolligi, bilish jarayonlari — xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur — bilan uzviy bog‘liq. Korreksion ta’lim jarayonida o‘qituvchining doimiy kuzatuv, bola bilan individual ishlash, differensial yondashuv hamda moslashtirilgan pedagogik strategiyalar nutqni rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Umuman olganda, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqni o‘rgatish va rivojlantirish murakkab, ammo juda muhim va mas’uliyatli jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati maxsus pedagogika metodlarining puxta qo‘llanishiga, daktil nutq va og‘zaki nutqning uyg‘un integratsiyasiga, shuningdek, bola uchun qulay psixologik-pedagogik muhit yaratilishiga bog‘liq. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim nafaqat bolaning nutqiy rivojiga, balki uning kommunikativ madaniyati, ijtimoiy moslashuvi, o‘quv faoliyati va shaxsiy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maxsus metodikalarning kompleks qo‘llanilishi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, mustaqil fikrlaydigan, to‘laqonli kommunikativ shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamaradjabova Z. Ona tili o‘qitishning maxsus metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
2. Ziyamuhamedova M. Surdotarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
3. Qodirova G., Xolmurodova S. Maxsus ta’lim metodikasi: rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2021.
4. Sattarova D. “Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq shakllanishining zamonaviy yondashuvlari.” // Maxsus pedagogika va psixologiya jurnali, 2023, №1.
5. Muminova Z., Qayumova L. “Daktil nutqning kar bolalar savod o‘rgatish jarayonidagi o‘rni.” // Pedagogik innovatsiyalar ilmiy jurnali, 2022, №4.
6. G‘aybullayeva Sh. Surdopedagogikada kommunikativ metodlar. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020.
7. To‘xtaqulova N. “Eshitishida og‘ir nuqsoni bo‘lgan bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirishning inklyuziv texnologiyalari.” // Maxsus ta’lim, 2021, №3.
8. Jabborova K. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda o‘qish va yozuvni rivojlantirish metodikasi. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2020.
9. Rasulova M. “Korreksion pedagogikada multisensor yondashuvning samaradorligi.” // Defektologiya va logopediya, 2023, №2.
10. Olimova F. Nutqiy rivojlanishida cheklanishi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashning zamonaviy metodlari. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2022.